



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

QO'SHIQCHILIK TERMINLARI UMUMIYLIKDAN XUSUSIYLIKGA

Mamatqulova To'lg'anoy,
O'zDSMI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi,
tolganoymamatqulova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179392>

Annotatsiya. Maqolada qo'shiqchilik yo'nalishida butun-bo'lak, jins va tur qo'shiqning avj nuqtasi, naqorat haqida gap ketadi. Qo'shiqchilik san'atida jins-tur munosabati terminologik maydonning asosini tashkil qiladi. Jins-tur munosabati ham nisbiy hisoblanib, bir jinsning turini tashkil qilgan narsalar ikkinchiga nisbatan jinsni bildirishi mumkin.

Kalit so'zlar: termin, mug'om, jins, tur, bayot, qo'shiq, naqorat, kuplet, maqom, ashula, avj, akkord, ijro etish.

Bizni qurshab turgan olamni tashkil etgan elementlar ma'lum umumiy belgilarga ko'ra sinflarga birlashadi hamda sinfga birlashgan elementlar shu sinf tarkibida bir-biridan farqli belgilarga ko'ra ajraladi. Butun elementlari butunliklar doirasida o'zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo'lsa, ayni chog'da, butunlik bilan butunlik katta butunlik doirasida uning elementlari sifatida o'zaro ana shunday munosabatda bo'ladi.

Jins va tur tushunchalari orasida inklyuziv (kiritish) munosabatlar mavjud. Masalan, *mug'om* – Ozarbayjon xalq musiqasida lad. Ushbu termin jami 70 dan ortiq *mug'om*lar turini jamlaydi, ulardan asosiylari, bir birlikni boshqa birlikdan ajratib turuvchi, farqlovchi differentsial belgilarga bo'ladi (*rast, shur, segoh, shushter, charyah, bayati shiraz, humayun*). Qolganlari shular zaminida tashkil topgan.

Partonimiya. Borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko'z oldimizda alohida butunlik sifatida namoyon bo'ladi. Ular ma'lum bir qismlardan, bo'laklardan tashkil topadi. Bu qismlar, bo'laklar bir-biri bilan bog'lanib turib yagona bir yaxlitlikni, sistemani tashkil qiladi.

O'zaro dialektik aloqada bo'lgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligiga *butunlik* deyiladi. *Qism* esa ana shu butunlikning tarkibiga kirgan bo'lak, element, komponentdir.

Rus olimi M.V.Nikitin "*butun*" tushunchasini xolonim (grek.holos – butun so'zidan) "qism"ni meronim (grek. mer – qism so'zidan) yoki partonim (grek. partos – bo'lak, qism so'zlaridan) deb atashni taklif qiladi.

D.N.Shmelev birinchilardan bo'lib rus tili leksikasining paradigmatic guruhlariga har tomonlama va atroflicha tavsif beradi. U so'zlar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlar borliqdagi predmetlarning o'rtasida mavjud munosabatlarga bog'liqligini, leksikadagi paradigmatic munosabatlar faqatgina ko'p



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

pog'onali yoki bir chiziqli emasligini aytib o'tadi. Ko'p so'zlar bir vaqtning o'zida turli leksik-semantik paradigmalarga mansub bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

D.N.Shmelev haqli ta'kidlaganidek, til lug'at sostavida mavjud bo'lgan barcha munosabatlarning e'tiborga olinishi u yoki bu ko'rsatkichlarning mohiyatini hamda so'zlarning turli guruhlarini tashkil etish xususitlarini baholashga imkoniyat yaratadi.

Darhaqiqat, har bir tilda butun-bo'lak munosabatini ifodalashga xoslangan muayyan leksemalar guruhi mavjud bo'ladi, bu holat terminlarga ham xosdir. Xolomonimiya yoki partonimiyaning giper-giponimiyadan farqi shuki, giponimiyada maydonning bir komponenti boshqalariga zidlanib, ular o'rtasidagi ma'no munosabatlari aniqlansa, partonimiyada alohida olingan komponentning uni tashkil qilayotgan ichki a'zolari bilan munosabati masalasi o'rtaga tashlanadi. Ya'ni giponimiyada tashqi munosabatlar aniqlansa, partonimiyada ichki munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, qo'shiqchilik termin maydoni komponentlaridan biri bo'lgan dasta terminini olaylik. **Dasta** – torli sozlarning chap qo'l bilan ushlanadigan qismi (grif). Demak, dasta tanbur, dutor, rubob singari an'anaviy sozlarning bir qismi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tanbur, dutor, rubob butunlik hisoblansa, dasta ularning bir qismidir.

B.Qilichev partonimiya hodisasi haqida shunday yozadi: "Borliqdagi har qanday hodisa serqirra bo'lgani kabi har bir so'zning ma'no munosabatlari ham rang-barangdir. Shuning uchun har bir leksema shu leksema uchun xos bo'lgan sinonimik, graduonimik, giponimik, partonimik qatorlar kesishgan nuqtada turadi va uning lisoniy-ma'noviy mohiyati mana shu chiziqning kesishish nuqtasiga qarab belgilanadi". Xuddi shu ta'rifni qo'shiqchilik terminlariga ham qo'llash mumkin. Qo'shiqchilik terminlari orasidagi partonimiya munosabatini tahlil qilamiz.

Ko'rinadiki, bayot terminining o'zi butunlik sifatida bir nechta qismlarga ajratiladi. Bu butun-bo'lak munosabati umumiylikni bildiradi. Faqat Hofiz Sheroziy g'azali bilan aytiladigan bayotlar esa xususiy butin-bo'lak munosabatini bildiradi.

Qo'shiqchilik termin maydoniga mansub bo'lgan yana bir termin manzumdir. Xorazm maqomlari ashula bo'limi **Manzum** (arab. – tuzilgan, terilgan ya'ni, nazm holiga keltirilgan) deb nomlangan. Ular muayyan tartibda, asosan g'azallarga bastalangani uchun Manzum deyiladi.

Har bir maqomda manzum bir necha ashula qismlaridan iborat yirik turkumni tashkil etadi. Ularda tuzilishi birligi, vazn-usul va shakllarning esa xilma-xilligi bilan ta'riflanadi. Manzumning asosiy qismlari – *Talqin, Nasr, Tarona, Suvora, Naqsh, Faryod, Ufar* va b.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Qo'shiqchilik termin maydoni komponentlari orasidagi butun-bo'lak munosabati yana **naqorat** termini orqali yuzaga chiqadi. **Naqorat** – qo'shiqning har bandidan so'ng muntazam ravishda takrorlanib turuvchi qismi. Naqoratning she'riy matni, odatda, to'rtlik yoki baytdan tashkil topib, tugal badiiy obrazni ifodalaydi. Naqorat musiqa asarining ikkinchi kuy davriyasi, ixcham va sodda shaklli namunalarda esa kuyning ikkinchi jumlasini sifatida gavdalanadi. Qo'shiq va madxiyalarda naqorat boshqa qismlardan musiqiy vazn, uslub va ijro sur'ati bilan farqlanishi mumkin. Xor jamoalariga mo'ljallab yaratilgan qo'shiqlarda naqorat qismi, odatda, yalpi xor tomonidan ijro etiladi. Ayrim xalq qo'shiq va yallalarida naqorat asosiy kuyini butunligicha takrorlaydi va bandlardan takroriy she'r matni tufayli ajratiladi. Demak, naqorat butunlik sifatida tugal badiiy obraz hisoblangan qo'shiqlarning, kuylarning, madhiyalarning, xalq qo'shiqlarining qismini tashkil qiladi.

Bu terminning zamonaviy varianti **kuplet** terminidir. **Kuplet** (frans. couplet) – 1) qo'shiq yoki she'rda naqorat tarzidagi band. Qo'shiq kuyi keyingi bandlarda ayvan (yoki qisman o'zgarishlar bilan) takrorlanadi. Kuplet musiqadagi ilk shakllardan bo'lib, o'zbek musiqa folkloridagi lapar, yalla, turli mavzudagi xalq qo'shiqlaridan o'rin olgan; 2) kupletlar – naqoratli, quvnoq, hazil yoki hajviy qo'shiq. Asosan, estrada hamda operetta (vodevil)da keng qo'llaniladi. Hozirgi zamon musiqasida bunday kupletlarni musiqali komediyalarda, estrada, sirk yoki konsert dasturlarida uchratish mumkin.

Qo'shiqchilik terminlari taraqqiyoti natijasida qismni bildirgan terminlar butunni ifodalay boshlagan. Masalan, **maqom** termini. **Maqom** (arab. – joy, makon, o'rin) – musulmon Sharqi musiqasida asosiy tushunchalardan biri. Dastlab muayyan balandlikdagi tovushni hosil etish uchun torli cholg'uning dastasida barmoq bilan bosiladigan joy, parda ma'nosida ishlatilgan. Demak, qismni bildirgan. Keyinchalik Sharq musiqa nazariyasi rivojlanishi jarayonida maqoming mazmun ko'lami tobora kengayib, bir-biriga nisbatan bog'liq boshqa ma'nolarni ham anglata boshlagah: lad tuzilmasi, lad tizimi; muayyan pardalar zaminida vujudga kelgan kuy-ohanglar; shakl, janr; bir qismli yoki turkumli cholg'u va ashula yo'llari; musiqiy uslub va boshqalar maqomlarga oid nazariy va musiqiy estetik masalalar Abu Yusuf Yoqub ibn Ishaq al-Kindiy va Forobiy (IX-X asrlar), Ibn Sino va Ibn Zayla (XI asr), Safiuddin al-Urmaviy (XIII asr), Mahmud ash-Sheroziy va Abdulqodir Marog'iy (XIX asr), Jomiy va Zaynulobiddin Husayniy (XV asr), Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy (XVI asr), Darvishali Changiy (XVII asr) va boshqa olimlarning musiqiy risolalarida tadqiq etilgan.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Gradunimiya. Dunyo tilshunosligida XIX asr oxiri va XX asr o'rtalarida tilshunoslikning rivojlanish jarayonida dialektik tadqiq yo'liga o'tganligi kuzatilgan. Bunga misol qilib N.S.Trubetskoyning fonologiyada oppozitsiya munosabatini tadqiq qilganini, oppozitsiya nazariyasini yaratganligini keltirishimiz mumkin. Shu taqqiqot natijasida tilshunoslikka graduallik tushunchasi kiritildi. Bu tushunchaga ko'ra belgining u yoki bu darajasiga e'tibor qaratilgan. Natijada struktur-semantik yondashuvda belgining graduallik xususiyati logik-semantik va jug'aviy-sintaktik kategoriya sifatida talqin etilgan va kuchaytiruvchi kategoriya toifasiga kiritilgan.

E.Sepir gradumiya munosabatini me'yor va ularning qutblarini tadqiq qilgan va jarayonni psixologik jarayon sifatida o'rgangan. U gradunimiya o'lcham va miqdoriy hususiyatlarga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Hissiyotlarning ortishi/ kamayishiga qarab mantiqiy psixologik va lingvistik gradunimiyani ajratgan. U graduallashdagi boshlang'ich nuqta, gradual shkala, gradual chiziqning mavjud qutblari borligini ta'kidlab, gradatsiya psixologik jarayon sifatida o'lcham va miqdordan oldin inson tafakkurida shakllanishini asoslab bergan. Qo'shiqchilik termin maydon komponentlari orasidagi gradual munobatni kuylar orasida ko'rishimiz mumkin. Masalan, **avj** (arab. – cho'qqi, baland) – musiqa asarining yuqori pardalardagi cho'qqisi, kulminatsiya nuqtasi, ya'ni musiqa asarining eng baland registrdagi davomli kuy tuzilmasi. Avjlarning asosiy turlari – kichik Avj, o'rta Avj, katta (yoki yuqori) Avj deb yuritiladi. Sho'balarning miyonxat tuzilmasini kichik Avjga, dunasrni – o'rta Avjga va namudlarni – katta Avjga qiyoslash mumkin. Avjlar musiqa asarlari bayoni va rivojida shakllantiruvchi va ifodalovchi ahamiyatga ega.

Grodunimiya munosabatini yuqorida bitta termin ichida ko'rinadi. Shu holatga yana **akkord** (lot. *accordo* – uyg'unlashtiraman) – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib sadolanishiga aytiladi. Barcha akkordlarning pastki tovushi–asosiy (yoki prima) ton, undan yuqoridagisi – tersiya toni, uchinchisi – kvinta toni, to'rtinchisi – septima toni, beshinchisi – nona toni deb yuritiladi va ana shu intervallarga mos raqamlar bilan belgilanadi. Akkordlar tarkiban (katta yoki kichik tersiyalar oldinma-ketin joylashishi jihatidan) bir-biridan farqlanadi. Asosiy tonidan hisoblanganida avval katta, so'ngra kichik tersiyalardan tuzilgan akkord – katta yoki major uchtovushligi, avval kichik so'ngra katta tersiyalardan tuzilgan akkord – kichik yoki minor uchtovushligi, ikki katta tersiyadan tuzilgani– orttirilgan, ikki kichik tersiyadan tuzilgani – kamaytirilgan uchtovushlik deyiladi.

Bas (ital. *basso* – past) – 1) erkaklarning eng past, yo'g'on ovozi. Baland yoki kuychan **Bas** (ital. *basso cantante*) hamda past **Baas** (*basso profundo*), opera amaliyotida – xarakterli, hajviy **Bas** (*basso buffo*) farq qilinadi. Rus xorlarida



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

oktavachi Baslar uchraydi, ular inson ovozi uchun eng past ovozda tovushlarni ijro eta oladi; XX asr xonandalaridan F. Shalyapin (Rossiya), N. Gyaurov (Bolgariya), Teo Adam (Germaniya), O'zbekistonda H. Ismoilov, V. Grinchenko, Q. Muhiddinov va boshqalarning ovozi Bas.

Bariton (ital. baritono, yun. barus – vazmin, past; ton–tovush) – 1) erkak xonandalar ovozining bir turi, balandligi jihatidan bas bilan tenor oralig'ida. O'zbek xonandalaridan M. Qoriyoqubov, N. Hoshimov, S. Benyaminov, chet el xonandalaridan D. Fisherdiskau, M. Mago-Masv, G. Ots, D. Xvorostovskiylar Bariton ovozlari bilan mashhur.

Tenor (lot. tenor – ovozning tekis xarakati) – erkak xonandaning baland (ingichka) ovozi. O'zbekistonda S. Yarashev, F. Abdurahmonov, A. Azimov, I. Jalilov, K. Serjanovlar tenor ovoziga ega.

Terminlarning ichida ba'zi terminlar o'z leksik ma'nosining teskari ma'nosida tushuniladi. Masalan, **alt** (ital. alto – yuqori, baland) – ovoz va soz turini bildiradi. Leksik ma'nosi yuqori, baland ma'nosini bersa ham, lekin u past ovozni ifodalaydi: u xor yoki vokal ansamblda partiya, xonanda bolalar yoki ayollar (messo-soprano, kontralto)ning past (yo'g'on) ovozini, xonanda o'g'il bolalarning past (yo'g'on) ovozini ko'rsatadi. Qo'shiqchilik terminlari ichida bir musiqaning o'zida ham gradunimiya munosabati ko'riladi.

Daromad (musiqada) – muqaddima, debocha, umuman, asarning bosh qismi, bo'lagi va har qanday bosh qism singari past tezlikda bo'ladi. Daromad maqom sho'basi, shuningdek, uning shakliga mutanosib cholg'u va ashula asarlarining 1 boshlangich tuzilmasi, xati. Sarxat deb ham yuritiladi. Ular navbatdagi sho'ba uchun muqaddima hisoblanadi. Masalan, Daromadi Nasri Ushshoq, Daromadi Dugohi Husayniy va h.k. Daromad musiqaning yoki qo'shiqning boshlang'ich qism bo'lsa, har bir musiqaning va qo'shiqning avji bo'ladi. Avjning o'z nomi bor. Masalan, **vadavang** juda avjida degan ma'nonini bildiradi: *Bugun ashulalar vadavang-ku, Sher aka!* (O. Yoqubov, Chin muhabbat) *Suv bo'yida harsillaydi podalar, to'qaylarda qushlar bazmi vadavang.* (Mirtemir)

Mumtoz ashulalarda qo'llanadigan mashhur avjning nomi **Zebo pari** deb nomlanadi. Taxminlarga ko'ra, bu avjni Zebo pari taxallusli farg'onalik mashhur xonanda va sozanda, bastakor Abdurahmon (XIX asr) ijod qilgan deb hisoblaydilar. Aslida, u bu avjni zo'r ehtiros va mahorat bilan ijro etganligi sababli avjga Zebo pari nomi berilgan. Zebo pari xonandalarning cho'qqi pardalarga chiqish, ovoz va badihago'ylik mahoratlarini namoyish etishlarida keng imkoniyatlarga ega.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ko'rinadiki, qo'shiqchilik terminlari orasida turli munosabatlar mavjud. Biz ishning hajmi talabiga ko'ra faqat uchta: giponimiya, partonimiya, gradunimiya munosabatlarini o'rgandik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskadarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o'rganish. Filol. fanlari d-ri...dis.avtoref.- Toshkent.1999
2. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B.136.
3. Shmelev D.N. Современный русский язык: Лексика. -М.,1973 -S.107-108 (335)
4. Qilichev B. O'zbek tilida partonimiya: filol. fan. nomzodi ... dis. avtoreferati. –Toshkent, 1997. –B. 18.
5. Kipyun A.D. Градация как способ организации лексико-семантической группы (качественные прилагательные со значением характеристике человека в совпеменном русском языке). Автореф.дисс.канд.филол.наук. -М.:Ун-т дружбы народов 1981. -S. 22
6. Sepir E. Градуирование: Семантическое исследование. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прогматика. -М.: Прогресс, 1985. -S. 43-78.